



TOPONIMLARDA ETNIK BELGILARNING AKS ETISHI

Islomov Sardor Sanjarovich

Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot materialida onomastik tizimning asosiy sathlaridan biri hisoblangan toponimlarda etnik belgilarning aks etishi masalasi tahlil qilingan. Etnotoponimlar deb yuritiluvchi mazkur lingvistik birliklarni tasniflashda jahon va o'zbek tilshunosligida mavjud ilmiy ma'lumotlar tahlil qilingan. O'zbekiston hududida joyla shgan etnotoponimlardan misollar keltirilib, munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: etnolingvistika, toponim, etnik xususiyatlar, etnotoponim, tarixiy va zamonaviy etnotoponimlar, Toyloq, Qoramo'yin.

Аннотация: В данном исследовании анализируется вопрос отражения этнических знаков в топонимах, которые считаются одним из основных уровней ономастической системы. При классификации этих языковых единиц, называемых этнотопонимами, анализируются существующие научные данные в мировой и узбекской лингвистике. Приводятся примеры этнотопонимов, встречающихся в Узбекистане, и выражается их взаимосвязь.

Ключевые слова: этнолингвистика, топоним, этнические характеристики, этнотопоним, исторические и современные этнотопонимы, Тойлак, Карамуин.

Abstract; This research material analyzes the issue of the reflection of ethnic signs in toponyms, which are considered one of the main levels of the onomastic system. In classifying these linguistic units, called ethnotoponyms, the existing scientific data in world and Uzbek linguistics are analyzed. Examples of ethnotoponyms located in Uzbekistan are given and their relationship is expressed.

Keywords: ethnolinguistics, toponym, ethnic characteristics, ethnotoponym, historical and modern ethnotoponyms, Toyloq, Karamuyin.

Etnolingvistik tadqiqotlar har qanday holatda ham murakkabdir. U turli madaniy kodlardan olingan ma'lumotlarga asoslanib, dunyoning an'anaviy manzarasining ma'lum bir qismini tasvirlashga yoki tilda mavjud bo'lgan ma'naviy madaniyatni aks ettirish xususiyatlarini (boshqa madaniy kodlar fonida) aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Tabiiy tilning har qanday qatlami, shu jumladan, umumiy denotativ yo'nalishga ega birliklar, xususan, onomastik tushunchalar ham voqelikning ma'lum bir qismi haqidagi ma'lumotlarni kodlaydi, ma'lum bir tilida so'zlashuvchining ichki dunyosi, tafakkur tarzi bilan bog'liq holda qayta ishlanadi va shunga mos ravishda ularning ma'naviy madaniyatining xususiyatlarini o'zida ifoda etadi⁴. Madaniy kodlar xalq tarixi bilan bevosita bog'liqligi bois etnolingvistik tahlilni ham talab etadi. Bunday tahlillar esa shu sohaga oid tushunchalar

⁴ Березович Е.Л. Русская топонимия в этнолингвистическом аспекте: дис.док.фил.наук. – Екатеринбург, 1998.



sharhi va terminlar mohiyatiga asoslanadi. Shuningdek, etnik o'ziga xoslik ham ahamiyatlidir.

Etnik xoslanishlar onomastik tizimning deyarli barcha sathlarida o'z ifodasini topadi. Chunki kishilar, ko'pincha, biror bir nom qo'yayotganda o'z ajdodlari, ota-bobolari va urug'iga ham ishora qiladilar. Shunga ko'ra, etnoantroponimlar, etnotoponimlar, etnooykonim kabi onimlar yuzaga keladi.

Toponimiyaga etnolingvistik tadqiqotlar uchun manba sifatida murojaat qilish dolzarbdir. Toponimiyani etnolingvistik o'rganishning dolzarbligi shundan kelib chiqadiki, xalq ma'naviy madaniyatining bu yetarlicha o'rganilmagan qatlami insonni o'rab turgan makon haqidagi ma'lumotlarni kodlaydi va uni idrok etish dunyoning milliy modelining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Toponimlar, ayniqsa, etnotoponimlar, ma'lum bir hudud aholisining etnik tarkibi bilan chambarchas bog'liq, chunki ular ularni yaratgan xalqlarning tafakkuri mahsulidir. Ko'pgina hollarda, turli xalqlarning geografik joylashuvi ularning toponimlari bilan aniqlanishi mumkin. Etnotoponimlar deb nomlanuvchi geografik nomlar mahalliy aholining etnik yoki madaniy xususiyatlarini ifodalovchi nomlardir. Ular ma'lum etnik guruhlar bilan qandaydir tarzda bog'liq bo'lgan shaharlar, hududlar, daryolar, tog'lar va boshqa tabiiy xususiyatlarning nomlarini o'z ichiga olishi mumkin. Natijada, tarixchilar va etnologlar o'zbek xalqining etnik tarixi, ayrim hududlarda aholining joylashishi tarixi va ularning kundalik va madaniy hayotining o'ziga xos jihatlari o'g'oid turli mavzularni chuqur o'rganish va tadqiq qilishda muhim rol o'ynaydi⁵. Etnotoponimlarning quyidagi turlari bor deb hisoblanadi:

Abstrakt joylarning etnik nomlari. Shaharlar yoki qishloqlarga ba'zan ma'lum bir etnik jamoa u yerda asos solgan yoki yashaganligi sababli nom berilgan. Masalan, Armaniston arman etnonimidan olingan va Gruziya millatni gruzin madaniyati va tiliga mansub deb hisoblanadi.

Muayyan etnik guruh bilan bog'liq geografik obyektlar nomlari. Bunday obyektlarga ko'llar, daryolar va tog'lar kabi tabiiy obyektlarning nomlari ham etnotoponimlarni o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, Oltoy nomi bilan tanilgan tog' tizmasi ko'plab Markaziy Osiyo etnik guruhlar uchun geografik uchrashuv nuqtasi bo'lib xizmat qila boshladi.

Tarixiy va madaniy toponimlar. Migratsiya, urushlar va istilolarning tarixiy voqealari ba'zi etnotoponimlar bilan bog'liq. Qadimgi xalqlar tomonidan ishlatilgan etnonimlardan kelib chiqqan Hindiston yoki toponim mo'g'ul xalqini bildiradigan Mo'g'uliston kabi nomlar bunga misol bo'la oladi.

Til xususiyatlari bilan bog'liq toponimlar. Geografik nomlar ba'zan tarixan bir joyni uy deb atagan til guruhi bilan bog'lanishi mumkin. Masalan, Tatar ko'chasi va Yakutsk Sibirdagi turli turkiy yoki fin-ugor etnik guruhlaridan kelib chiqqan nomlarga ega

⁵ Meyliyeve G.R. Definition to Ethnotoponyms and research the ethnic history of the Uzbek people // Texas Journal of Philology, Culture and History. ISSN NO: 2770-8608 <https://zienjournals.com> December 2024.





joylarning misolidir. Geografik nomlar tildan tashqari xususiyatlar bilan ajralib turadi, ya'ni jamiyat va siyosiy tizimlardagi o'zgarishlar toponimlarning kelajakdagi taqdiriga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbek tilshunosligida ham etnotoponimlar bo'yicha tadqiqotlar mavjud. olimlar tomonidan etnotoponimlarning etimologiyasi, sistem-struktur va semantik jihatlarini o'rganilgan. Xususan, A.Turobov Samarqanddagi joy nomlari borasida fikr yuritarkan, Tayloq tumaniga ham to'xtalib o'tadi. Tayloq – Samarqand viloyati tumanlarining birining nomi. Tayloq tumani markazi. Bu yerda Tayloqota nomli muqaddas joy ham mavjud. 1904-1905-yillar manbalarida Tayloqipoyon va Tayloqibolo nomlari keltirilgan. Tayloq, toyloq – urug' nomi. Oqtayloq, qoratayloq tarmoqlari bor. Tayloq, toyloq – bir yoshdan oshgan tuya bolasi. Tayloq totem, shu asosda urug' nomi yasalgan. Urug' nomidan qishloq nomi yuzaga kelgan. Toyloq – etnooykonimi toy so'ziga o'zakdan anglashilgan predmet, narsaning mo'lligini, ko'pligini, bildiradigan o'rin-joy oti yasovchi -loq qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan. "Toyloq" so'zi tarixiy manbalarda o'zbek va turkiy xalqlar tarixida chorvachilikka aloqador bo'lgan. Toyloq kichkina "o'yinchoq, toycha; erka, erkato'y" ma'nosini ifodalaydi. Toyloq – ko'pincha ot (yoki tuya)ning hali to'liq o'rgatilmagan, yosh, lekin ishga yaroqli naviga aytiladi. Bu esa mazkur joyda tarixan chorvachilik bilan shug'ullangan xalq yashaganini ko'rsatadi. Toyloq vodiysi tarixan boy tabiat va chorvachilikka qulay sharoitga ega bo'lgan. Bu ham nomning kelib chiqishida muhim o'rin tutadi. O'zbek, qoraqalpolarda toyloq (to'g'risi toyloqli) degan urug' bor⁶.

Etnotoponimlar masalasiga e'tibor qaratar ekanmiz, Surxondaryo viloyati hududida mavjud Qorabo'yin etnotoponimiga ham to'xtalishni lozim deb hisobladik. Qorabo'yin – Boysun tumanidagi Rabot qishlog'iga tegishli joy nomi. Qorabo'yin / qoramo'yin – turkiy xalqlarga, qipchoqlarga, xususan, qo'ng'iro't urug'iga xos etnonim. U o'rta asrlarda qipchoq lahjasida so'zlashuvchi qo'ng'iro't urug'iga tegishli urug' bo'lgan. Ko'chmanchi qipchoqlar bilan O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston (aniqrog'i Movarounnahr)ga kelib, turli urug', qabilalar bilan qo'shib ketgan, ularga tobe turli urug' yo tarmoqqa aylangan. Buxoro va Samarqand qoraqalpolari, Farg'ona qipchoqlari, Surxondaryoning To'palang daryosi chap irmog'i Sharg'unsoy bo'ylaridagi qarluqlar, Boysun qo'ng'iro'tlari tortuvli bo'limining maydato'ba urug'i tarkibida qorabo'yin / qoramo'yin etnonimining mavjudligi bu fikrni isbotlaydi. Qoraqalpoq va turkmanlarning ham qaramoyo'n, garamoyon urug'i bo'lgan⁷. Demak joy nomi etnonimga asoslanganligi borasidagi fikrlarimiz to'g'ri.

Yig'ilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, toponimlarda etnik jihatlarining aks etish ko'lami birmuncha keng va rang-barangdir. Bu borada berilgan ilmiy xulosalarni tahlil qilish hali mazkur lingvistik birliklarning tadqiqi uchun ko'plab izlanishlar olib borilishi lozimligini ko'rsatadi.

⁶ <https://samarqandim.uz/news/279>

⁷ Турсунов С. Сурхондарё вилояти топонимлари. – Тошкент, 2016. – Б. 99.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Adabiyotlar ro'yxati:

1. Березович Е.Л. Русская топонимия в этнолингвистическом аспекте: дис.док.фил.наук. – Екатеринбург, 1998.
2. Meyliyeva G.R. Definition to Ethnotoponyms and research the ethnic history of the Uzbek people // Texas Journal of Philology, Culture and History. ISSN NO: 2770-8608 <https://zienjournals.com> December 2024.
3. Турсунов С. Сурхондарё вилояти топонимлари. – Тошкент, 2016. – Б. 99.
4. <https://samarqandim.uz/news/279>